

## TEXNOGEN VA MILLIY ONG MUVOZANATINING MILLIY TARAQQIYOTDA NAMOYON BO'LISHI

*Avlakulov Aktam Mavlonkulovich,*

*Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti katta o'qituvchisi.*

*Tel: (99) 828 85 15*

*E-mail: [aktam.avlakulov@gmail.com](mailto:aktam.avlakulov@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Texnogen sivilizatsiyaning vujudga kelishi dunyo davlatlarining iqtisodiy o'sishini ham tezlashtirib, sanoat va ishlab chiqarishda katta o'zgarishlarga olib keldi. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, robotlashtirish kabi sa'y-harakatlar mahsulot ishlab chiqarish quvvatini bir necha barobar oshirib yubordi. Buning natijasida kishilarda iqtisodiy manfaatdorlik, foyda olish asosiy maqsadga aylandi. Fan-texnika sohasidagi inqilob kishilar hayotining ham tezlashishiga, texnika va texnologiya vositalarining ommaviylashuviga olib keldi. Bu o'z navbatida kishilarda texnogen ongning vujudga kelishini va uni milliy ong darajasiga ko'tarilishiga turtki bo'ldi. Bugungi kunga kelib esa, milliy ong va texnogen ong o'rtasidagi munosabat turli sohalarda ijobiy va salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Texnogen ong va milliy ong o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatga keltirish va uni milliy taraqqiyotni ta'minlashga yo'naltirish dolzarb ahamiyat kas etib bormoqda. Maqolada muayyan adabiyotlar tahlili asosida ushbu masalalarga doir qarashlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** sivilizatsiya, texnogen sivilizatsiya, texnogen ong, milliy ong, milliy taraqqiyot.

**KIRISH.** Agar yaqin asrlarga nazar solsak, XIX asr bu sanoat inqilobi asri sifatida tarixda muhrlanib qoldi. Temir yo'llar, bug' dvigatellari, elektr toki, traktorlar ixtiro qilindi, agrosanoat sohasida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Ana shu davrlardan boshlab kishilarning ijtimoiy hayotida katta o'zgarish, tub burilish, milliy taraqqiyot sari intilish jarayonlarining tezlashishi sodir bo'ldi. XX asr fizika va muhandislik asri sifatida tarixga kirdi. Bu davrda atom energiyasi, raketa va samolyotlar, mashinalar, TV, radio, Internet tizimi, dastlabki mobil telefonlar, turmush-tarzimizni yengillashtiruvchi maishiy texnika vositalari – muzlatgichdan tortib, to kir yuvish mashinalarigacha ixtiro qilindi. Insonlar butun borliqni tadqiq qilish, tabiatni, koinotni o'zlashtirishdek katta imkoniyat eshiklariga qadam qo'ydi. Ilk bor inson koinotga sayr qildi, kosmosni o'rganish, tadqiq qilish boshlandi. Inson va tabiat munosabatlarida jiddiy o'zgarishlar jarayoni sodir bo'la boshladi. Maishiy turmush sohasida birmuncha yengilliklar sodir bo'lib, insonlar tomonidan bajarib

kelingan vazifalar sekin-asta texnika qo‘liga o‘ta boshladi. Ulkan, baland inshootlar, ko‘priklar, katta qurilish obyektlarini barpo etish tizimida ham tub burilish yuzaga keldi. Hozirgi, XXI asr esa bu shubhasiz raqamli texnologiyalar asridir. Bu global internet tarmog‘i, ijtimoiy tarmoqlar, masofadan boshqariladigan qurilmalar, o‘zi yurar (haydovchisiz) va uchar mashinalar, robotlar, sun‘iy intellekt va dasturlash asridir. Bugungi kun, hozirgi vaqt insonlardan uning sohasi yoki kasbi qanday bo‘lishidan qat‘i nazar kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishni bilishi talab qilinadigan davrdir. Negaki, barcha sohalarda kompyuterlar, raqamli texnologiyalar, robotlar va sun‘iy intellekt vositalari xizmatlaridan foydalanish sohalari rivojini ta‘minlaydigan, yorqin kelajagini belgilab beruvchi omilga aylanib borayotir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** «Ma‘lumki, texnogen sivilizatsiya XX asrga kelib jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida katta o‘zgarishlarga olib keldi. Bu davrda fan, texnika, texnologiya nihoyatda tez sur‘atlar bilan rivojlandi. Yadro energiyasidan foydalanish, koinotni o‘zlashtirish va boshqa ilmiy-texnikaviy hamda aloqa sohasidagi ulkan kashfiyotlar tufayli yangi axborotlashgan jamiyat asriga qadam tashlandi. Jamiyat hayotida ham katta iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Katta axborot maydoniga ega bo‘lgan Internet paydo bo‘ldi» [13. 152].

«Bugungi aloqaning sun‘iy yo‘ldosh va optik kabel tizimlari, kompyuterlar va raqamli fakslar jahon axborot yo‘llari va ularning sistemasini ta‘minlashni shunday darajaga olib keldiki, bugun bu texnik vositalardan foydalanadigan har qanday kishi qisqa vaqt ichida jahonning istalgan bir nuqtasida o‘zini qiziqtirayotgan hodisalarga shohid bo‘lishi va hatto ularning qatnashchisiga aylanishi mumkin» [12. 425].

**NATIJALAR.** Bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlari milliy taraqqiyot sari dadil qadam tashlar ekan, zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya imkoniyatlaridan unumli foydalanishga, ularning natijalaridan bahramand bo‘lishga intilishlari kuchayib bormoqda. Texnogen sivilizatsiya asrida yaratilayotgan texnika-texnologiyalardan foydalanmaslik, ularni amaliyotga joriy qilmaslik bugungi davr taraqqiyotidan orqada qolishiga sabab bo‘ladigan darajadagi katta kuch va ta‘sirga ega. Bugun taraqqiy etgan mamlakatlar, xalqlar va millatlarning rivojlanish yo‘liga nazar soladigan bo‘lsak, ularning bu darajadagi taraqqiyot cho‘qqisiga olib chiqqan omillar – zamonaviy ilm-fanning rivojlanishi, xususiy biznes vakillari, tadbirkorlarning ta‘sirini kuchaytirish, ma‘rifatparvarlarning ilm yo‘lidagi sa‘y-harakatlari, kashfiyotchi olimlarning texnika sohasidagi ulkan loyihalari, innovatsion ishlanmalarning amaliyotga joriy etilishidir. «...Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiya oldida izdan tamomila chiqqan mamlakat

iqtisodiyotini qisqa muddat ichida tiklash vazifasi turar edi. Manbalarda qayd etilishicha, o‘shanda bu vazifani amalga oshirish uchun hukumatga uchta taklif kiritiladi. Birinchisi – yirik davlatlardan qarz ko‘tarish, ikkinchisi – ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish, uchinchisi – budjetning asosiy qismini maktabga sarflash. Uchinchi taklif qabul qilinadi va zamonaviy texnologiyalar ilmini puxta o‘zlashtirgan yangi avlod mamlakatni qutqarib qoladi» [9].

Texnika va texnologiyalar hayotning ajralmas qismiga aylanganidan keyin dunyo mamlakatlarining iqtisodiy hayotida katta o‘zgarishlar jarayoni yuz bera boshladi. Texnika vositalarini yaratish, ishlab chiqarish va ularni dunyo mamlakatlariga eksport qilishga intilish ham kuchaydi. Chunki insonlarda doimiy o‘zgarib boradigan ehtiyojni qanoatlantirish, yana ham qulayroq hayot kechirish imkonini beradigan zamonaviy texnologiyalarga bo‘lgan talab kun sayin oshib bormoqda. Mana shu oshib borayotgan talab, ehtiyoj texnika ishlab chiqaruvchi va bu sohada yangilik qiluvchilar faoliyatining jadallashishiga, iqtisodiy imkoniyat va manfaatdorlikning oshishiga olib keldi, farovon hayot kechirishga intilishlarini ham oshirib yubordi. Mamlakatlar tomonidan texnika ishlab chiqarish sohasining qo‘llab-quvvatlanishi, ularga turli imtiyozlar, imkoniyat va sharoitlar yaratib berilishi sohaning taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir o‘tkazdi. Buning natijasida mamlakat milliy iqtisodiyotida ham jiddiy ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Bugungi avlod zamonaviy texnika va texnologiya sohasini rivojlantirish milliy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishdagi imkoniyat ekanligini anglab yetmoqda. Shuning uchun ham bugungi davrda barcha uchun muhim bo‘lgan talab – faqat iste‘molchi sifatida yashash emas, balki tayyor mahsulot yetkazib beruvchi sifatida yashashni kuchaytirmoqda. Har bir sohaning istiqboli o‘z yo‘nalishida texnogen sivilizatsiya taraqqiyoti, takomillashuvi va uning insonparvarlashuvi bilan doim uzviy aloqada kechmoqda. Bu hech bir soha texnogen sivilizatsiyadan ayro holda, uning natijalaridan bahramand bo‘lmasdan rivojlana olmasligini isbotlamoqda.

Sanoatlashgan jamiyatning vujudga kelishi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, robotlashtirilishi va axborot texnologiyalarining jalb qilinishi natijasida dunyo miqyosida katta-katta iqtisodiy tizimlar yaratildi. Oxirgi o‘n yillikda dunyoning eng yetakchi sohalariga aylanib borayotgan, axborot texnologiyalari, vositalari ishlab chiqarish va dasturlar yaratish bilan shug‘ullanadigan korxonalar (masalan, «Apple»ning 2021 moliyaviy yil 1 oktabrdan – 2022-yil 30-sentabrgacha yillik daromadi 400 mlrd AQSH dollarga[2], «Samsung» 2022-yil birinchi choragida 57 mlrd AQSH dollariga yaqin[1], «LG» 2022-yil 66 mlrd AQSH dollariga yaqin [6]daromad qilgan. ChatGPT 2022-yil noyabrda tashkil qilinib, ikki oyda 1 mln. obunachilarga ega bo‘lgan) ning mahsulotlariga talabning keskin oshishi ularning daromadini ham yuqori bo‘lishini

ta'minlab bermoqda. Demak, aytish mumkinki, bugungi globallasuv avj olgan davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish va ommalashtirish mamlakatlar va xalqlar milliy taraqqiyoti asoslaridan biri hisoblanadi.

**MUHOKAMA.** Lekin hozir ham iqtisodiy jihatdan rivojlanishdan orqada qolgan, beqarorlik va siyosiy nizolar avj olgan mamlakatlarda milliy taraqqiyot yo'liga kirish murakkablashib bormoqda. Bunga juda ko'p omillar, xususan, dunyo maydonida ro'y berayotgan mafkuraviy kurashlar, siyosiy harakatlar, axborot urushlari, ichki ziddiyat va nizolarning kuchayishi, mamlakatlararo to'qnashuvlarni qurol bilan hal qilishga urinishlar, korrupsiyaning kuchayib ketganligi kabi omillar ta'sir qilmoqda. «Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko'rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz»[10. 237]. Hayot sharoitlarini yaxshilash uchun ilmni rivojlantirish, ta'lim tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali amalga oshirish istiqbolda kutilgan natijalarni berishini ko'plab mamlakatlarning taraqqiyot tajribalaridan bilish mumkin. Masalan, rivojlangan Yevropa davlatlari (YEI ga a'zo mamlakatlarning deyarli barchasida) yoki taraqqiyotga erishgan Sharq mamlakatlari (Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur va boshqa davlatlar)ning ta'lim sohasida qilgan islohotlari bugun kutilgandanda ko'proq samara berayotganligini, ularning ta'lim berish usullaridan dunyoning ko'plab mamlakatlari andoza olgan holda foydalanishga harakat qilayotganliklarini aytish mumkin.

Kompyuter, axborot texnologiyalari, raqamli, aqlli texnologiyalar, robotlar, sun'iy intellekt vositalari insoniyat uchun ta'lim sohasi subyektlarining haqiqiy yordamchisiga aylanmoqda. Bu bir tomondan mamlakatlar ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida o'qitishni tashkillashtirish, zamonaviy dunyoqarashga ega, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'lsa, ikkinchi tomondan mamlakat o'z oldiga qo'ygan milliy taraqqiyotga yo'nalitirilgan maqsadlariga erishishning o'ziga xos samarali yo'li hamdir.

Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. ... Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, ertaga juda kech bo'ladi»[4]. Darhaqiqat, ta'lim sohasini rivojlantirish uchun ham raqamli bilimlar va zamonaviy texnologiyalarga oid ko'nikmalarni jamiyat a'zolari, ayniqsa, yoshlar ko'proq egallashlari kerak bo'ladi. Aynan yoshlar mamlakatning rivojlanishini ta'minlaydigan, milliy taraqqiyotga erishishiga ko'maklashadigan eng asosiy va faol qatlam hisoblanadi. Aks holda o'sib

kelayotgan yoshlar jahon mehnat bozoridagi raqobatga bardosh bera olmasdan, arzon ishchi kuchi sifatida qolib ketishlari muqarrar. «...intellektual kapitalni maksimal darajada oshiradigan sohalarga mablag' kiritish kerak. XXI asrda bu vazifa hukumat uchun eng murakkab vazifalardan biri bo'lib qoladi va oddiy yechimlar bo'lishi mumkin emas. Bir tomondan, bu har qanday odam o'z kasbini o'zgartirishi va bitiruvchilar maktabdanoq ishsizlar qatoriga tushib qolmasligi uchun butun ta'lim tizimini tubdan qayta qurish demakdir»[8. 305].

Texnologiyalarning taraqqiyoti davomida insonlar yana qanday imkoniyatlarga ega bo'lishi-yu, qanday yo'qotishlarga uchrashi mumkinligi to'g'risida ham olimlar va mutaxassislar tomonidan turli farazlar ilgari surilmoqda. Taraqqiyotning bugungi bosqichida texnika va texnologiya sohasidagi ayrim natijalar istiqbolda katta yutuqlar keltirishi shubhasiz. Kelajak ta'lim tizimi raqobatlariga to'la muhitda o'ziga xos o'rinni egallash uchun kurashadigan kadrlar maydoniga aylanadi. O'z kasbining mutaxassisi, o'z ustida tinmay ishlaydigan, zamonaviy dunyoqarashga, keng fikrlay olish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassislarga bu kurashda g'oliblar tomonida bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish jarayonlariga robotlarning keng jalb qilinishi butun insoniyatga mehnatni osonlashtirish, vaqtni tejash, ko'proq mahsulot ishlab chiqarish, iqtisodiy raqobatning yuzaga kelishi, samaradorlikning ortishi, sifatning yuqorilab borishi, madaniy xordiq olish uchun imkoniyatning paydo bo'lishi kabi bir qancha umuminsoniy ijobiy holatlarni keltirib chiqaradi. Shuning bilan birga, ishsizlikning avj olishi, bo'sh vaqtni maqsadsiz sarflash, kam harakat qilish natijasida turli kasalliklarning kelib chiqishi, texnika vositalariga pessimistik munosabatning shakllanishi kabi bir qancha salbiy oqibatlarni ham kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Avtomatlashtirish, robotlashtirish jarayonlarining oqibatlari masalasida dunyo miqyosida har xil munosabatlar shakllanmoqda. Uning ijobiy tomonlarini qayd etish bilan birga, kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlaridan himoyalaniish zarurati to'g'risida ogohlantirish chaqiriqlari yangramoqda.

Mamlakatimizda texnogen sivilizatsiya imkoniyatlaridan ta'lim sohasini rivojlantirishda qanday foydalanishimiz kerak? Buning uchun quyidagi tizimli amaliy ishlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq:

birinchidan, milliy ta'lim tizimimizda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini saqlagan holda, zamonaviy kasblar (dasturlash, veb dizaynerlik, robototexnologiya, IT-mutaxassislik, konstruktorlik, muhandis-texnolog kabilar)ni o'rgatishni rivojlantirish. Chunki mamlakatimiz rivojlanish sari dadil odimlar ekan, ishlab chiqarish sohalari takomillashib borgani sari zamonaviy kasblarga talab oshib

boradi. Bu talabni milliy mutaxassis kadrlar orqali qanoatlantirmaslik xorijlik mutaxassislarga ehtiyojni oshiradi. Bu esa sohalar rivojini kechiktirishi mumkin;

ikkinchidan, ta'lim tizimida qo'llanadigan turli texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni kengaytirish, investitsiyalarni kengroq jalb qilish, rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganish va manfaatlilarini amalda joriy qilish zarur;

uchinchidan, ta'lim dargohlarida tarbiyalanayotgan yoshlarni olayotgan ma'lumotlarini yodlash va shunchaki eslab qolishga emas, mohiyatini tushunish, tahlil qilish va munosabat bildirishga o'rgatish, amaliyotga qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish hamda eng muhimi, o'zining novatorlik qobiliyatini namoyon etish imkoniyatini berish kerak;

to'rtinchidan, millatimiz vakillarining har bir a'zosi ongida ta'lim olish, muayyan sohada mutaxassis bo'lishni, kasb tanlashni o'z xohish va istaklari darajasiga ko'tarish hissini shakllantirish. Ya'ni, ta'lim olib muayyan yo'nalish bo'yicha mutaxassis bo'lishni kimningdir majburlovi hisobiga emas, balki o'z ichki istagi darajasiga ko'tarish;

beshinchidan, zamonaviy ta'lim beruvchi subyektlarning bilim darajasini ham hozirgi talab darajasiga yetkazish, an'anaviy ta'lim berishdan noan'anaviy ta'lim bera olish darajasiga chiqarish zarurati mavjud;

oltinchidan, ta'lim oluvchilarning bugungi zamon talabi nuqtayi-nazaridan ma'naviy ehtiyojlarini hisobga olish va shu ehtiyojni qanoatlantira oladigan bilimni berishga yo'naltirish zarur.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni alohida ta'kidlamoqchimizki, texnogen sivilizatsiya natijalari kelajakda ta'lim tizimida yil sayin emas, balki kun sayin yana ham mustahkamroq o'rin egallab boraveradi. Insonlar axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan yana ham samaraliroq foydalanishga harakat qilaveradi. Yangi fan tarmoqlari, yangi mutaxassisliklar shakllanib, yangi kadrlar tayyorlashga talab oshib boradi. Bu butun insoniyatning bugungi kundagi ehtiyoji, talabidir.

Texnika va texnologiya sohasidagi o'zgarishlar dunyo mamlakatlari siyosiy hayotiga ham chuqur kirib borib, mustahkam o'rin egallamoqda. Mamlakatlararo munosabatlarda, davlat boshqaruv sohasida, manfaatli ichki va tashqi siyosatni amalga oshirish, fuqarolar xavfsizligi, chegaralar daxlsizligini ta'minlash, davlatlararo chegaralardagi nazorat punktlarida inson omilini kamaytirish, millatlararo munosabatlarda totuvlik tamoyilining amal qilishi, yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini yo'lga qo'yish kabi amaliyotlar bugungi kunda bevosita texnogen sivilizatsiya jarayoni bilan bog'liq holda olib borilmoqda. Boshqaruv sohasida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi, davlat xizmatlari ko'rsatishning masofaviy

shakllarining yoʻlga qoʻyilishi, virtual qabulxonalarning ochilishi siyosiy hokimiyat va fuqarolar oʻrtasidagi munosabatlarning ijobiy boʻlishini taʼminlab, oʻzaro ishonchning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, eng asosiysi, fuqarolar siyosiy ongining oʻsishi va huquqiy madaniyatini yuksalishiga ham xizmat qiladi. Texnika va texnologiya imkoniyatlarining siyosiy hayotda qoʻllanilishi davlat hokimiyati va jamiyat aʼzolari faoliyatlarini uygʻunlashtirishda katta rol oʻynaydi. Boshqaruv tizimidagi faoliyatni osonlashtiradi, bu hukumat tomonidan islohotlarni fuqarolarga yetkazishda vaqtini tejaydi, qogʻozbozlikni kamaytiradi hamda davlat hokimiyati va jamiyat aʼzolari oʻrtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Siyosiy jarayonlar va islohotlarning ochiqligi taʼminlanadi. Texnika va texnologiyalardan siyosiy hokimiyat faoliyati va uni mustahkamlashda foydalanish: a) ochiq, pragmatik siyosat yuritishga; b) fuqarolarning siyosiy islohotlarda faol boʻlishiga; d) jamoat tashkilotlariga birlashish orqali siyosiy hokimiyat faoliyatini nazorat qilishga; e) ijtimoiy muammolarni siyosiy faol kishilar orqali hal qilishga; f) fuqarolik jamiyatini shakllanishiga; g) huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshishiga; h) hokimiyat organlari rahbarlarining oʻzlarining vakolatidagi vazifalarni sidqidildan bajarishlariga; i) siyosiy jarayonlarga befarq boʻlmagan faol fuqarolarni shakllanishiga koʻmak beradi. Ochiq siyosat fuqarolarning hukumat va uning aʼzolariga, siyosiy elitaga boʻlgan ishonch va mehrini oshiradi. Demak, axborot texnologiyalari rivojlangan davrda siyosiy faoliyatda barcha jarayonlarning ochiqligini taʼminlash ham hukumatga, ham fuqarolarga birdek manfaat keltiradi, turli tushunmovchiliklar kelib chiqishining oldini oladi. Fuqarolarning siyosiy pozitsiyasi axborot texnologiyalari orqali hukumatga yetib boradi va davlat ham jamiyat xohish-istaklarini inobatga olgan holda siyosat yuritishi osonlashadi. Jamoatchilik nazorati orqali davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar nazorat qilib boriladi. Natijada bajarilmagan ishlar, yoʻl qoʻyilgan kamchiliklar yoki xatolar oʻz vaqtida aniqlanadi va yechimini izlash choralari koʻriladi.

Rivojlangan mamlakatlar eng asosiy siyosiy masala boʻlgan harbiy sohada dahshatli qurollarni ishlab chiqarishda katta natijalarni qoʻlga kiritdi. «Bugun yer yuzida toʻplangan portlovchi qurollar kurrai zaminda yashayotgan 7 milliarddan ortiq aholining har biriga bir tonna kuchga ega ekanligi mutaxassislar tomonidan taʼkidlangan. Agar ular ishga tushadigan boʻlsa, kurrai zaminni bir necha marta chil-parchin qilishi mumkin ekan»[11. 94]. Demak, harbiy qurol-aslaha ishlab chiqarish texnika va texnologiya taraqqiyoti bilan yonma-yon rivojlanmoqda. Rossiya fanlar akademiyasining akademigi V.Ye.Fortov tomonidan yaratilayotgan dunyoda eng katta kuchga ega boʻlgan elektromagnit zambarakning oʻqi sekundiga 12,5 km tezlikda harakatlanar ekan[7]. Bugun Shimoliy Koreyada sinovdan oʻtgan raketa 4000 km uzoqlikkacha yetib borar ekan, insoniyatni qirishga qaratilgan

qurollarni ishlab chiqarayotganlar, yangilarini yaratish borasida bir daqiqa ham to'xtamasdan harakatlarini davom ettirmoqdalar[5]. «Qurollanishga dunyoda 1960-yili 200 mlrd., 1970-yil 400 mlrd., 1990-yilga kelib 1 trln AQSH dollari sarflangan. Ushbu ko'rsatkich 2000 yilda 4 trln, 2010-yilda 1,6 trln sarflangan»[11. 95]. Stokgolm xalqaro tinchlik tashkiloti (SIPRI) ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda jahondagi umumiy harbiy xarajatlar miqdori 2 trillion AQSH dollari[3] ni tashkil qilgan. Bu miqdor yil sayin oshib borayotganligidan kelib chiqadigan bo'lsak, hali harbiy sohada bir-biridan kuchli yangi qurol-aslahalar va harbiy texnika vositalarini ixtiro qilish, yaratish ishlari jadallashib boraveradi. Demak, harbiy qurol-aslahalar ishlab chiqarish jarayonining rivoji texnogen sivilizatsiya taraqqiyoti bilan uzviy ravishda bormoqda. Bu texnogen sivilizatsiya taraqqiy etgani va takomillashgani sari harbiy sohada bir biridan dahshatli qurollar ham yaratilaveradi degani. Buning yana ham dahshatli tomoni shundaki, katta va zamonaviy harbiy qurollarni yaratishga intilish hissining ortishi rivojlanmagan yoki taraqqiyot yo'liga endi kirgan, tabiiy resurslarga boy mamlakatlarning boshiga turli kulfatlarni keltirib chiqaraveradi. Bu esa mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy tafovutlarni yana ham kattalashishiga, siyosiy bosimlarning ortishiga, munosabatlarning taranglashishiga olib keladi. «Bundan tashqari, bugungi kunda to'rtta qit'aning yetti davlatida atom qurollarining mavjudligi insoniyatning qancha yashab qolishini ham so'roq ostida qoldirmoqda»[11. 94].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yaratilayotgan texnika vositalari inson intellektual salohiyatining natijasi sifatida kishilarning ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilash, farovonlikni oshirish, odamlarga qulay yashash muhitini yaratish, millatlar va xalqlarning milliy taraqqiyot sari intilishlarini jadallashtirish, ular o'rtasida do'stona aloqalarni o'rnatish, mamlakatlararo ijtimoiy-siyosiy va madaniy munosabatlarda insonparvarlik tamoyillarining amal qilinishini kuchaytirish, bugungi kundagi milliy, mintaqaviy va global muammolarni bartaraf etishda dunyo hamjamiyatini birgalikda harakat qilishlariga ko'maklashish maqsadida yaratilgan. Lekin texnika va texnologiyani rivojlantirishda oldinga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish hamma mamlakatlar uchun birdek kechmayapti. U ayrim mamlakatlar milliy taraqqiyotini belgilab bergan bo'lsa, ayrim mamlakatlar uchun beqarorlik keltirib chiqargan vositaga aylanmoqda.

**XULOSA.** Xulosa sifatida aytish mumkinki, texnogen sivilizatsiya milliy taraqqiyotga turli ta'sir qilishi mumkin. Faqat unday taraqqiyot yo'lida qanday foydalanish yo'llarini topish muhim ahamiyatga ega. Texnogen sivilizatsiyaning milliy taraqqiyotda namoyon bo'lishini bizningcha quyidagilarda ko'rish mumkin:



birinchidan, texnogen sivilizatsiya sharoitida mamlakat taraqqiyotida erishilgan yoki qo‘lga kiritilgan har qanday ijobiy natija boshqa sohalar rivojiga ham bevosita ta‘sir qiladi;

ikkinchidan, bugungi kundagi jahon iqtisodiyotida tejamkorlik siyosati yuritilayotgan bir davrda yangi, tejamkor, samarali va foydali texnologiyalarga bo‘lgan talabning kun sayin oshib borishi bilan xarakterlanadi;

uchinchidan, texnika va texnologiyaning barcha sohalariga ta‘sirining kuchayib borishida ko‘rinadi;

to‘rtinchidan, texnika vositalari (axborot texnologiyalari) millat uchun ahamiyatli bo‘lgan milliy madaniyat, til, urf-odatlar va an‘analarni saqlab qolish, millatlararo totuvlik milliy va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, ezgu g‘oyalarni targ‘ib qilish, vayronkor g‘oyalarga qarshi kurashda samarali vosita hisoblanadi (vaqtni tejaydi va xarajatni kamaytiradi);

beshinchidan, texnika va texnologiyalar mamlakat va xalqlar milliy taraqqiyotining asosi bo‘lgan ilm-fanni zamonaviylashtirish jarayonini tezlashtiradigan, dunyo ilm-fani yutuqlaridan bahramand bo‘lish imkoniyatini beradigan vositalar majmuasi ekanligidir.

Demak, texnogen sivilizatsiya va uning natijalari milliy taraqqiyotga xizmat qilishi yoki mamlakatlar tanlagan yo‘ldan og‘dirib, beqarorlikni keltirib chiqaradigan darajada katta ta‘sirga ega vositalar majmuasidir. Texnogen sivilizatsiya va uning natijalari hamda imkoniyatlaridan kim qanday maqsadda foydalanishiga qarab uning turli oqibatlari kelib chiqaveradi.

Asosiy maqsad milliy taraqqiyotni ta‘minlash ekan – bunda texnogen sivilizatsiya imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish, uning natijalaridan bahramand bo‘lishning o‘zi yetarli emas. Balki texnogen sivilizatsiya sharoitida zamonaviy fikrlaydigan rahbarlardan tortib, zamonaviy ilm olishga intiladigan yoshlargacha mas‘uliyatni his qilishlari va o‘zlarining bor salohiyatlarini ishga solib mamlakat taraqqiyoti uchun jon kuydirishlari talab qilinadi. Aks holda, dunyo bugungi kunda taqdim qilayotgan yutuqlarning, kashfiyot va natijalarning iste‘molchisi sifatida yashab, hayotimiz bir chiziqda ketishi mumkin. Zero, bugungi hayot kechagisidan yaxshiroq, ertangisi esa bugungisidan yaxshiroq bo‘lgan hayotga intilishni kuchaytirish milliy taraqqiyotning kafolatidir.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Chimirzayev A. Samsung xodimlari qancha maosh olishadi?  
<https://sof.uz/post/samsungda-maosh-qancha-qanday-ishga-kirish-mumkin>

2. <https://kun.uz/news/2022/10/28/applening-yillik-moliyaviy-natijalari-u-qariyb-400-mlrd-dollar-ishlagan-bu-rekord>

3. <https://www.sipri.org/media/press-release/2021/world-military-spending-rises-almost-2-trillion-2020>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliy-2501-2020>.
5. Revenue for LG Electronics (066570.KS) <https://companiesmarketcap.com/lg-electronics/revenue/>
6. Каку М. Физика будущего. – Москва: Альпина нон-фикшн, 2017. – 305 с.
7. Мелибоев А. Сингапур: учинчи дунёдан биринчи дунёга // «Adolat» ижтимоий-сиёсий газетаси. Тошкент. – 2020, – №5.
8. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 237 б.
9. Отамуратов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти (сиёсий-фалсафий қирралари) – Тошкент: O‘zbekiston NMIU, 2018. – 94 б.
10. Ҳасанов А. Геосиёсат. – Тошкент: TAMADDUN, 2016. – 425 б.
11. Юсупов Э. Шарқ фалсафаси ва инсонпарварлик // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2003. – № 10. – Б. 152